

REFEREN, RAMZ VA MILLIY REALIYA TARJIMONNING INDIVIDUAL TALQINIDA (SHOIR A.ORIPOV VA SHOIR K.KARIMOV SHE'RLARINING INGLIZCHA TARJIMALARI MISOLIDA)

Xo'jamurotov Ramil Ibrohimovich
Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti
gaylieva.77@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21867938>

Annotatsiya. Maqolada shoirlar Abdulla Oripovning “Birinci muhabbatim” hamda K.Karimovning “Qaytadi tagi”, “Inanba” va “Qalpagim” she’rlari inglizcha tarjimalari qiyosiy o’rganildi. Tarjimalarda emotsional eksplikatsiya, refrenni qayta qurish, ramziy ma’noni ochiqalashtirish, sakral obrazni sekulyarlashtirish va milliy realiyani neytrallashtirish holatlari aniqlandi.

Kalit so’zlar: individual talqin, poetik obraz, refren, ramz, emotsional eksplikatsiya, milliy realiya, sekulyarlashtirish, semantik refren.

Badiiy tarjima jarayonida tarjimon aslyatdagi tayyor mazmunni ikkinchi tilda mexanik tarzda takrorlovchi vositachi emas. U matnni tushunadi, uning obrazli va uslubiy xususiyatlarini saralaydi, muayyan ma’no qatlamlarini ustuvorlashtiradi hamda tarjima tili imkoniyatlari asosida yangi badiiy matn yaratadi. Shu sababli tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik va estetik o’zgarishlar ko’p jihatdan tarjimonning individual interpretatsiyasiga bog’liq bo’ladi.

Tarjimonning individual interpretatsiyasi asarning qaysi ma’no qatlamini yetakchi deb bilishida namoyon bo’ladi. Tarjimon qofiyani saqlash maqsadida ayrim obrazlarni o’zgartirishi, yashirin ramziy ma’noni ochiq ifodalashi, milliy realiyani transliteratsiya qilishi yoki uni umumiy tushuncha bilan almashtirishi mumkin. Bunday tanlovlar tarjima matnining obrazli, kompozitsion va uslubiy qiyofasini belgilaydi.

Olim Lorens Venuti tarjimani muayyan madaniy sharoit imkon bergan va ayni paytda cheklagan interpretativ harakat sifatida baholaydi. Tarjimonning qarori faqat ikki til o’rtasidagi munosabatga emas, balki qabul qiluvchi madaniyatning adabiy me’yorlari, kitobxon kutishi, nashr siyosati va estetik qarashlariga ham bog’liq [1, 1–18-b.].

Tadqiqotning maqsadi shoirlar A.Oripovning “Birinci muhabbatim” hamda K.Karimovning “Qaytadi tagi”, “Inanba” va “Qalpagim” she’rlari inglizcha tarjimalarida refren, ramz va milliy realiyalarning individual talqin qilinishini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, kontekstual, semantik-komponent va lingvopoetik tahlil usullaridan foydalanildi.

Shoir A.Oripovning “Birinci muhabbatim” she’ri birinchi bandida tabiat holati lirik subyektning ruhiy kechinmalariga parallel qo’yiladi:

Kecha oqshom falakda oy bo’zarib botganda,
Zuhro yulduz miltirab, xira xanda otganda,
Ruhimda bir ma’yuslik, sokinlik uyg’otganda... [3, 114-b.].

Inglizcha tarjimada:

Last night as the wan moon was leaving the sky,
As Venus smiled a sad smile above me high,
When my moaning soul in silence made me cry... [3, 115-b.].

“Oy bo‘zarib botganda” birikmasi inglizcha tarjimada *the wan moon was leaving the sky* shaklida berilgan. *Wan moon* - rangpar, nursizlangan oy ma’nosini ifodalab, asliyatdagi xazin manzarani asosan saqlaydi. Biroq *was leaving the sky* birikmasida oyning botishi osmonni tark etish tarzida qayta ifodalangan. Natijada tabiiy harakatga ayriliq semantikasi qo‘shilgan:

oyning botishi - oyning osmonni tark etishi - ayriliq.

“Zuhro yulduz miltirab, xira xanda otganda” misrasida “miltiramoq” va “xira xanda otmoq” harakatlari o‘zaro birlashib, ma’yus tabiat manzarasini yuzaga keltiradi. Tarjimada mazkur obraz *Venus smiled a sad smile* shaklida berilgan. “Miltiramoq” semasi tushirib qoldirilgan, ammo *sad smile* birikmasi oksyumoronga yaqin “g’amgin tabassum” obrazini hosil qilgan. Demak, tarjimon tasvirning predmetli belgisini qisqartirib, uning emotsional mazmunini kuchaytirgan.

Eng jiddiy transformatsiya quyidagi misrada kuzatiladi:

Ruhimda bir ma’yuslik, sokinlik uyg‘otganda...

Tarjimada:

When my moaning soul in silence made me cry.

Asliyatda “yig‘lamoq” harakati mavjud emas. Ma’yuslik va sokinlik lirik subyekt ruhida uyg‘ongan ichki psixologik holatlardir. Tarjimada esa:

ma’yuslik - *moaning soul*; sokinlik - *in silence*; ichki kechinma - *made me cry* shaklida ifodalangan.

Natijada sokin va bosiq ruhiy holat ochiq yig‘iga aylantirilgan. Bu hodisani emotsional eksplikatsiya, ya’ni asliyatda bilvosita ifodalangan kechinmani tarjimada ochiq va kuchaytirib berish deb baholash mumkin. Tarjimon she’rning umumiy elegik ruhini lirik subyektning tashqi harakati orqali aniqroq ko‘rsatishga intilgan. Biroq mazkur talqinda asliyatdagi ruhiy sokinlikning nozikligi qisman yo‘qolgan.

Asliyatdagi “birinchi muhabbatim” refreni inglizcha tarjimada muntazam ravishda: *O my first love* shaklida takrorlanadi. Inglizcha variantda *O* undovining qo‘shilishi bevosita murojaat ohangini kuchaytiradi. O‘zbekcha matnda egalik qo‘shimchasi va takrorning o‘zi intim munosabatni yuzaga keltiradi. Inglizcha tarjimada esa *O* undovi she’rni elegik va apostrofik murojaatga yaqinlashtiradi.

Tarjimon refrenning quyidagi xususiyatlarini saqlagan: kompozitsion o‘rni; lirik adresati; bandlarni o‘zaro bog‘lash vazifasi; “men - birinchi muhabbat” munosabati; emotsional takrorlanishi.

Shu jihatdan refren tarjimasi funksional va kompozitsion jihatdan muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Biroq refren oldidagi ayrim jumlalarning erkin talqin qilinishi asliyatdagi psixologik mazmunni o‘zgartirgan. Masalan:

Mangu g‘aflatda qoldim, birinchi muhabbatim
misrasi:

Now for years my loss I’ll bear, O my first love
tarzida berilgan.

“Mangu g‘aflat” birikmasi kech anglash, beparvolik, ma’naviy uyg‘oqsizlik va o‘zini ayblash ma’nolarini anglatadi. *My loss I’ll bear* esa “yo‘qotish azobini ko‘taraman” mazmunini ifodalaydi. Natijada quyidagi semantik transformatsiya yuz bergan: **ma’naviy g‘aflat va o‘zini ayblash - ayriliq azobini ko‘tarish.**

Tarjimon lirik subyektning axloqiy-psixologik iqrorini yo‘qotish dardiga aylantirgan. Bu o‘zgarish she’rning elegik mazmunini kuchaytirsada, asliyatdagi o‘zini taftish qilish semantikasini zaiflashtirgan.

Shoir A.Oripov she'rida dunyo va inson munosabati murakkab fazoviy hamda psixologik obrazlar orqali ifodalanadi:

Dunyo degani shundayin anglab bo'lmas sir ekan,
Goh keng ekan, gohida tuynuksiz qasr ekan,
Lekin inson hamisha bir hisga asir ekan... [3, 114-b.].

Inglizcha tarjimada:

The world's such a puzzle that no one could guess,
Methinks 'tis vast or narrow without a pass,
But a man is always charm'd to have a chance... [3, 115-b.].

Birinchi misradagi "anglab bo'lmas sir" *a puzzle that no one could guess* shaklida muvaffaqiyatli konkretlashtirilgan. *Puzzle* birligi inson yechishga urinadigan, ammo yechimi noma'lum hodisani ifodalaydi. Shu sababli dunyoning sirli va murakkab tabiati tarjimada asosan saqlangan.

Biroq "tuynuksiz qasr" obrazi *narrow without a pass* shaklida berilgani sababli qasr obrazi yo'qolgan. Asliyatda dunyo insonni ichiga qamab qo'yadigan, eshik va tuynugi bo'lmagan yopiq makon sifatida modellashiriladi. "Qasr" bir vaqtning o'zida ulug'vorlik, yopiqlik va tutqunlik ma'nolarini birlashtiradi. Tarjimada esa u chiqish yo'li bo'lmagan tor joy sifatida umumlashtirilgan: tuynuksiz qasr - chiqish yo'li bo'lmagan tor makon.

Natijada predmetning umumiy fazoviy mazmuni saqlangan bo'lsa-da, qasrning timsoliy va estetik qimmatini yo'qolgan. Bu obrazni umumlashtirish va qisman demetaforizatsiya qilish holatidir.

"Lekin inson hamisha bir hisga asir ekan" misrasining *a man is always charm'd to have a chance* shaklida berilishi esa asliyat mazmunidan jiddiy uzoqlashgan. "Hisga asir bo'lish" insonning muayyan tuyg'uga ruhiy jihatdan qaramligini anglatadi. *To have a chance* esa imkoniyatga ega bo'lish ma'nosini beradi.

Ehtimol, tarjimon *guess-pass-chance* ohangdoshligini hosil qilish maqsadida semantik aniqlikni qofiyaga bo'ysundirgan. Natijada asliyatdagi "inson - his - asirlik" falsafiy munosabati zaiflashgan. Bu misol tarjimon individual talqinida qofiya va shakliy ohangdorlik ba'zan obrazning konseptual mazmunidan ustun qo'yilganini ko'rsatadi.

She'r yakunida birinchi muhabbat obrazi ma'naviy va sakral darajaga ko'tariladi:

Dildagi ohim mening, birinchi muhabbatim,
Yolg'iz Ollohim mening, birinchi muhabbatim [3, 114-b.].

Tarjimada:

And you are the woe of mine, O my first love,
And the only soul of mine, O my first love [3, 115-b.].

"Dildagi ohim" birikmasining *the woe of mine* shaklida berilishi izzat va ichki dard mazmunini qisman saqlaydi. Biroq "yolg'iz Ollohim"ning *the only soul of mine* tarzida tarjima qilinishi sakral obrazning semantik maqomini o'zgartirgan.

"Ollohim" so'zi birinchi muhabbatning lirik subyekt uchun mutlaq, muqaddas va sig'inish darajasidagi qadriyatga aylanganini anglatadi. *Soul* esa "ruh" yoki "jon" ma'nosida kelib, ilohiylik semasini ifodalaymaydi. Natijada: **Olloh - muqaddas va mutlaq qadriyat - soul - ruhiy yaqinlik** transformatsiyasi yuzaga kelgan.

Buni sakral obrazning sekulyarlashuvi, ya'ni diniy-ilohiy mazmunning dunyoviy-psixologik tushuncha bilan almashtirilishi sifatida baholash mumkin. Tarjima ravonligi ta'minlangan bo'lsa-da, she'rning kulminatsion metaforasidagi aksiologik yuksalish to'liq tiklanmagan.

Shoir K.Karimovning “Qaytadi taği” sarlavhasi takroriy qaytish ma’nosini anglatadi. Inglizcha sarlavha *Comes Back* tarzida berilgan. Bunda “taği” - “yana” semasi alohida ifodalanmagan. *Comes Back Again* varianti sarlavhadagi takroriylik va siklik harakatni aniqroq saqlagan bo’lar edi.

She’rning markaziy misrasi:

Múñayma, báháriń keledi taği [4, 23-b.]

inglizcha tarjimada:

Don’t grieve; your heart will find joy again [4, 23-b.]

shaklida berilgan.

Asliyatda bahor tabiiy fasl bo’lish bilan birga ruhiy yangilanish, umid, qayta tiklanish va quvonch ramzidir. Tarjimon uni to’g’ridan-to’g’ri *spring* deb bermasdan, obrazning yashirin psixologik ma’nosini ochib, *joy* bilan almashtirgan:

bahor - yangilanish - umid - quvonch.

Tarjimada ushbu semantik zanjirning oxirgi bo’g’ini asosiy birlik sifatida tanlangan. Bu hodisa interpretatsion eksplikatsiyadir. Tarjimon bahorni tabiat obrazi sifatida emas, lirik qahramon qalbiga qaytib keladigan quvonch sifatida talqin qilgan.

Mazkur yechim she’rning psixologik mazmunini ingliz kitobxoni uchun tushunarli qiladi. Biroq uning muayyan estetik yo’qotishi ham bor. She’rda turna, shamol, gul, bog’, yomg’ir va bahordan tashkil topgan yaxlit tabiat maydoni mavjud. “Bahor”ning *joy* bilan almashtirilishi ushbu obrazlar tizimining tabiiy birligini zaiflashtiradi. Natijada she’r tabiat lirikasidan psixologik tasalli lirikasiga yaqinlashtirilgan.

Asliyatda “báháriń keledi taği” misrasi refren sifatida takrorlanadi. Tarjimada u turli shakllarda ifodalanagan: *your heart will find joy again; joy will return to your soul again; the joy you awaited will return again.*

Ushbu jumlarlar leksik va sintaktik jihatdan farq qiladi, ammo *joy* semasi orqali o’zaro bog’langan. Tarjimon shakliy refrenni aynan saqlamagan, balki semantik refren yaratgan. Shunday qilib: **takroriy bahor obrazi - takroriy quvonch mazmuni** transformatsiyasi yuzaga kelgan.

Bu usul asosiy psixologik g’oyani saqlaydi, ammo refrenning fonetik, sintaktik va kompozitsion aynanligini susaytiradi.

She’rdagi:

Kóklerge tarğıllap tırnalar qayttı,

Samallar sağıńıp qosıǵın ayttı... [4, 23-b.]

misralari tarjimada:

Cranes returned, crying out to the skies,

The breeze sang a song of longing... [4, 23-b.]

tarzida berilgan.

Turnalarning qaytishi va shamolning sog’inib qo’shiq aytishi obrazlari inglizcha tarjimada asosan saqlangan. *The breeze sang a song of longing* ifodasi jonlantirishni tabiiy ravishda qayta yaratadi. Shu sababli qoraqalpochka matndagi tabiat va inson kechinmasi o’rtasidagi psixologik parallelizm tarjimada ham mavjud.

Shoir K.Karimovning “İnanba” she’ri xalqona hikmat va ogohlantirish ohangiga asoslangan:

Sózlerge inanba, sózler aldamshı,

Kózlerge inanba, kózler aldamshı,

Quyash bolıp baqqan kózler aldamshı,

İnan júregińe inansań, janım [4, 23-b.].

Inglizcha tarjimada:

Don't believe in words; words are deceitful,

Don't believe in eyes; eyes are deceitful,

Faces that look upon you like the sun are deceitful,

Believe in your heart if you trust anything, my dear [4, 23-b.].

Birinchi ikki misradagi anafora va sintaktik parallelizm muvaffaqiyatli saqlangan:

Don't believe in words...

Don't believe in eyes...

Ushbu takror she'ring ogohlantiruvchi ohangini inglizcha tarjimada ham qayta yaratgan.

“Inanba” sarlavhasining *Don't Believe* shaklida berilishi ham kommunikativ va pragmatik vazifa jihatidan muvofiq.

Biroq:

Quyash bolip baqqan kózler aldamshi

misrasi:

Faces that look upon you like the sun are deceitful

tarzida tarjima qilingan. Asliyatdagi asosiy predmet - quyoshdek nur sohib qaraydigan “ko'zlar”. Tarjimada *eyes* o'rniga *faces* ishlatilib, obrazning predmet markazi o'zgartirilgan: **quyosh - ko'z munosabati - quyosh - yuz munosabati**.

Natijada “nurli nigoh ham aldashi mumkin” degan nozik ma'no qisman zaiflashgan. Tarjimon ehtimol ingliz tilida tabiiyroq tasvir yaratishga intilgan, ammo bunda asliyat obrazining konseptual aniqligi qisqargan.

“Inan júregiñe inansań, janım” misrasi *Believe in your heart if you trust anything, my dear* tarzida berilgan. “Janım”ning *my dear* bilan ifodalanishi murojaat samimiyligini saqlaydi. “Yuragingga ishon” konseptual yadrosi ham muvaffaqiyatli qayta yaratilgan. Shu sababli ayrim predmetli siljishlarga qaramay, she'ring axloqiy g'oyasi tarjimada barqaror qolgan.

Shoir K.Karimovning “Qalpağım” she'rida qalpoq oddiy bosh kiyimi emas, balki qoraqalpoq xalqining tarixiy taqdiri, milliy xotirasi va ma'naviy iztiroblarini mujassamlashtirgan obrazdir. Sarlavha ingliz tiliga *My Kalpak* shaklida tarjima qilingan. *Kalpak* so'zining transliteratsiya qilinishi milliy realiyani saqlashga xizmat qiladi. Bu forenizatsiya strategiyasining maqbul ko'rinishidir.

Biroq she'r yakunidagi:

Talay dáreslerge túsken qalpağım [4, 23-b.]

misrasi:

My hat has endured many sufferings

shaklida berilgan. Bu o'rinda sarlavhada saqlangan *kalpak* milliy realiyasi matn ichida umumiy *hat* - “bosh kiyim” so'zi bilan almashtirilgan.

Qalpoq obrazida quyidagi ma'no qatlamlari birlashadi: etnik mansublik; milliy libos; xalq tarixi; mardlik va g'urur; avlodlar xotirasi; tarixiy iztirob.

Hat esa asosan predmetning kundalik-maishiy vazifasini anglatadi. Natijada qalpoqning denotativ mazmuni saqlangan, ammo uning etnomadaniy va aksiologik semantikasi qisqargan.

Tarjimon sarlavhada milliy birlikni saqlash, matn ichida esa uni ingliz kitobxoniga tushunarli qilish o'rtasida ikki yo'nalishli strategiyani tanlagan. Biroq bu tanlov matnning terminologik va obrazli izchilligini buzadi. Samaraliroq variantda *kalpak* so'zi she'r davomida ham saqlanib, zarur holatda izoh orqali uning qoraqalpoq milliy bosh kiyimi ekani tushuntirilishi mumkin edi.

Qiyosiy tahlil ikki xil interpretatsion tendensiyaning ko'rsatadi. Shoir A.Oripov she'rining tarjimasida asliyatning elegik ohangini inglizcha qofiya, apostrofik murojaat va emotsional kuchaytirish orqali qayta yaratish ustuvor. Tarjimon yig'i, yo'qotish va ichki iztirobnini ochiq ifodalagan. Biroq qofiya va ta'sirchanlikka intilish “tuynuksiz qasr”, “hisga asir” va “yolg'iz Ollohim” kabi obrazlarning semantik hajmini qisqartirgan.

Tarjimon N.Qo'qonova tarjimalarida esa ramznining yashirin psixologik ma'nosini ochiq ifodalash yetakchilik qiladi. “Bahor”ning *joy* tarzida berilishi mazkur uslubning eng aniq ko'rinishidir. Tarjimon kitobxonga ramzni mustaqil talqin qilish imkonini qoldirishdan ko'ra, uning nazarda tutilgan ma'nosini to'g'ridan-to'g'ri ochib beradi. “Inanba”da sintaktik parallelizm va murojaat ohangi yaxshi saqlangan bo'lsa, “Qalpağım”da milliy realiyaning *hat* bilan almashtirilishi etnomadaniy mazmunning qisqarishiga olib kelgan.

Umuman olganda, tahlil natijalari tarjimonning individual interpretatsiyasi faqat alohida so'z tanlovida emas, balki poetik obrazning qaysi qatlamini ustuvor deb bilishida ham namoyon bo'lishini ko'rsatdi.

Shoir A.Oripovning “Birinch muhabbatim” she'ri tarjimasida romantik-emotsional qayta qurish yetakchilik qiladi. Refrenning kompozitsion o'rni va murojaat ohangi saqlangan, biroq ayrim falsafiy metaforalar qofiya va inglizcha ohangdorlik talablariga bo'ysundirilgan. “Yolg'iz Ollohim” obrazining *the only soul of mine* bilan almashtirilishi sakral ma'noning sekulyarlashuviga olib kelgan.

Shoir K.Karimov she'rlarining N.Qo'qonova tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarida ramzlarning yashirin psixologik ma'nosini ochiq lashtirish ustuvor. “Bahor” *joyga* aylantirilib, shakliy refren o'rniga semantik refren yaratilgan. “Inanba”da anafora, sintaktik parallelizm va axloqiy g'oya muvaffaqiyatli saqlangan. “Qalpağım”da esa milliy realiyaning *hat* bilan almashtirilishi obrazning etnomadaniy mazmunini qisqartirgan.

Demak, birinchi tarjimada qofiya va hissiy ta'sir, ikkinchi tarjimon yondashuvda esa ma'noning bevosita tushunarli ustuvor qo'yilgan. Har ikki usulda muayyan estetik natijaga erishilgan bo'lsa-da, asliyat obrazlarining ayrim falsafiy, milliy va sakral komponentlari yo'qolgan yoki o'zgargan.

Tarjimonning individual interpretatsiyasi badiiy tarjimaning tabiiy va zarur xususiyatidir. Ammo ijodiy talqin obraz shaklini o'zgartirgan taqdirda ham, uning semantik yadrosi va matniy vazifasini saqlashi lozim. Aks holda interpretatsiya asliyatning muallif bahosi va milliy-estetik mazmunini o'zgartiruvchi deformatsiyaga aylanishi mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Venuti L. *Translation Changes Everything: Theory and Practice*. - London-New York: Routledge, 2013. - 288 p. - P. 1–18.
2. Oripov A. “Birinch muhabbatim / My First Love” // Sultonova D.A., Halimova F.R. *She'r va tarjima: o'quv-uslubiy qo'llanma*. - Samarqand: SamDChTI, 2009. - B. 114–115.
3. Karimov K. “Qaytadi tağı / Comes Back”; “Inanba / Don't Believe”; “Qalpağım / My Kalpak” / ingliz tiliga N. Qo'qonova tarjimasi // *Qaraqalpaq ádebiyatı*. - 2024. - №7–8–9 (163–165). - B. 23.